



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 9-oktabr, payshanba,
114 (24.140)-son

O'zbek xalq
maqoli

Birikmagan
birlashmas

Ish sifatli bajarilsa, xalq roziligiga erishiladi

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev **Imom Buxoriy majmuasi hamda uning atrofidagi mahallalarda** amalga oshirilayotgan qurilish-bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.

Dastlab Xo'ja Ismoil shaharchasining arxitektura va me'moriy qiyofasi muhandislik infratuzilmasini yaxshilash, yo'l bo'yi kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, obodonlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida mas'ullarning axboroti tinglandi.

Ta'kidlanishicha, majmua atrofida joylashgan qariyb 960 ta xonadon uchun salkam 15 kilometrlik yuqori bosimli, 42 kilometrlik o'rta va past bosimli tabiiy gaz tarmog'i tortilgan. Hozirgi vaqtda elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida yangi transformator punktlari o'rnatilib, eski simyog'ochlar almashtirilmoqda, 211 kilometr elektr uzatish tarmoqlari tortilmoqda.

Shuningdek, shaharcha aholisini toza ichimlik suvi, oqova tizimlari bilan ta'minlash, telekommunikatsiya xizmatlarini yaxshilash ishlari olib borilmoqda. Yodgorlik majmuasi atrofida zamonaviy avtoturargoh, yordamchi binolar ham barpo etilmoqda.

Viloyat rahbari ishlarni sifatli bajarish, kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

Viloyat rahbari A.Boboyev **Respublika ixtisoslashgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand hududiy filialida** bo'lib, muassasa faoliyati va bemorlar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda qandli diabet bilan og'rigan 47 ming 800 nafardan ziyod bemor ro'yxatga olingan. Hatto qo'shni viloyatlardan ham bemorlar kelib, mazkur muassasada davolanadi. Bu esa tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, bemorlar uchun qulay sharoit yaratishni talab etadi.

Hokim intensiv davolash va jonlantirish bo'limidagi bemorlar bilan suhbatlashdi. Ularning dori-darmon bilan ta'minlanishi jarayonlari bilan qiziqdi. Shifokorlar bilan mulqotda endokren kasalliklarni davolashda zamonaviy usullarni joriy etish, ustoz-shogird an'anasi asosida malakali kadrlar tayyorlash, qandli diabetning oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlari ni kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

A.Boboyev **Payariq tumanidagi "Umidjon taraqqiyot", "Musa-bek chorva kompleksi" fermer xo'jaliklari** dala maydonlarida paxta yig'im-terimi ishlari bilan tanishdi.

Viloyat rahbari yig'im-terim ishlari zamonaviy texnika vositalarini jalb etish orqali aholi mehnatini yengillashtirish, hosilni sifatli va qisqa muddatlarda terib olishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi. Tumandagi mavjud 18 ta zamonaviy terim mashinalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatmalar berdi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.

Samarqanddagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida ommaviy yugurish marafoni bo'lib o'tdi.

Marafon "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" doirasida "Eco-Save Aral-2025", "Talaba-yugur", "O'quvchi-yugur" shiorlari ostida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, xalqaro xayriya va ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratildi.

Ezgu g'oya atrofida jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirgan marafonda davlat xizmatchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, umumta'lim maktablari o'quvchilari, harbiylar, bojxona xodimlari, imkoniyati cheklangan shaxslar hamda turli yoshdagi fuqarolar sog'lom hayot sari faol qadam tashladi.

Marafonda besh mingdan ziyod ishtirokchi 3 kilometr masofani bosib o'tdi.

Natijalarga ko'ra, "Save Aral" bosqichida erkaklar o'rtasida Otabek Toshquvvatov, ayollar po'ygasida Shohsanam Yo'ldosheva g'olib bo'ldi. Talabalar bahsida Azizbek Boshmonov va Ruhshona Abduxoliqova, o'quvchilar o'rtasida esa Shahriyor Shodiyev hamda Farangiz Alimova marraga birinchi bo'lib keldi.

G'oliblar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

Sherzod ISOQULOV.

5000 NAFAR

ishtirokchi sog'lom hayot sari yugurdi



ESHITISH, KO'RISH KERAK, LEKIN GAZETA O'QISHNING ZAVQI BOSHQACHA!

"Zarafshon" va "Samarqandskiy vestnik" gazetalariga

2026-YIL UCHUN OBUNA

davom etmoqda.

Obunani tahririyat yoki elektron to'lov tizimlari orqali ham rasmiylashtirishingiz mumkin!

Telefonlar: (66) 233-91-51, (66) 233-91-56

"Кексаларга ҳурмат - ёшларга ибрат"

2-8 октябрь кунлари юртимизда шу шior ostida "Кексалар ҳафталиги" ўтказилди.

Вилотимизда ҳам ҳафталик доирасида маҳаллалардаги нуронийлар, "Саховат" ва "Мурувват" интернат уйларида истикомат қилаётган кексалар ҳолидан хабар олиниб, хайрия тadbirlari, спорт мусобақалари, нуронийлар ва ёшлар учрашувлари ташкил этилди.



Жумладан, юртимиздаги музейлар, театрлар ва зиёратгоҳларга 90 минг нафарга яқин нуронийнинг саёҳатлари уюштирилди. Хусусан, Ургут туманидан бир гуруҳ нуронийлар қадимий Бухоро ҳамда Хоразм вилоятлари, оқдарёлик нуронийлар эса Жиззахдаги Зомин дам олиш масканига саёҳат қилишди. Шунингдек, кексаларнинг соғлиғини тиклаш мақсадида маҳаллаларда 78 минг нафардан зиёд кекса тиббий кўрикдан ўтказилди. Ноғиронлиги бўлган 497 нафар кексага реабилитация воситалари - нуронлиқ аравачалари, ҳасса, кўлтиктаёк, эшитиш носилари, 7894 нафар якка-ёлғиз ҳамда ижтимоий ҳимояга муҳтож нуронийга озик-овқат маҳсулотлари берилди, 4437 минг нафари зарур дори-дармонлар билан таъминланди.

Уйда ётиб қолган 29631 нафар, шифохоналарда даволанаётган 2869 нафар нуронийнинг ҳолидан хабар олиниб, моддий ва маънавий ёрдамлар кўрсатилди, 384 нафар кексаларнинг юбилей кечалари ўтказилди. "Нуронийлар - ёшлар нигоҳида" мавзусида маданий тadbirlar, учрашувлар ташкил этилди. Таълим муассасаларида уюштирилган "Аср билан юзма-юз" тadbirlarida 100 ва ундан катта ёшдаги 32 нафар нуроний ҳолидан хабар олинди. "Кексаларнинг ҳаёти биз учун ибрат" мавзусида маҳаллалар, таълим муассасалари ва ташкилотларда давра суҳбатлари ўтказилди.

Жойларда "Қўша қариш саодати" мавзусида 50, 60 ва ундан кўп йил биргаликда умр кечирган нуронийларнинг ибратли ҳаётини ёш авлодга тарғиб этиш мақсадида маънавий-маданий тadbirlar ташкил этилди. Мазкур тadbirlarда маҳаллалардаги ажрим ёқасига келиб қолган ёш оилаларга кексаларнинг ҳаёт йўли намуна қилиб кўрсатилди. Маҳаллаларда ўтказилган шу каби маданий-маърифий тadbirlar ва спорт мусобақаларига 56 минг нафардан зиёд нуроний жалб қилинди.

Донакул ТОШБОЕВ,
"Нуроний" жамғармаси вилоят бўлими
раиси ўринбосари.

Tarixiy anjumanga tayyorgarlik qizg'in pallaga kirdi

Oktabr oyi so'nggi kunlarida Samarqand shahrida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESCO) Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'z ishini boshlaydi.

Mazkur xalqaro forumning so'nggi 40 yil ichida birinchi marta YUNESCONing Parij shahridagi qarorgohidan boshqa joyda - Sharq va G'arbni bog'lagan Samarqandda o'tkazilishi tashkilotning 80 yilligiga to'g'ri kelgani bilan ham tarixiy ahamiyatga ega. Yana bir e'tiborli tomoni, 43-sessiyada tashkilotning amaldagi rahbari vakolat muddati tugashi munosabati bilan yangi bosh direktor saylanadi. Shu sababli YUNESCO bosh shtab kvartirasi hamda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yubiley sessiyasiga qizg'in hozirlik ko'rilmogda.

Prezidentimizning 2024-yil 15-martdagi qaroriga ko'ra, mazkur tadbirga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi tasdiqlanib, zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tashkiliy qo'mita tomonidan sessiya bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan ishchi guruhlari tuzilib, ular tomonidan zarur vazifalar bajarilmoqda.

- Sessiya ishtirokchilari va nufuzli



mehmonlarni munosib kutib olish va kuzatish uchun Samarqand xalqaro aeroporti va temiryo'l vokzalida qo'shimcha imkoniyatlar, sharoitlar yaratildi, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov. - Ularning xavfsizligini ta'minlash, zarurat tug'ilganda, tibbiy xizmat ko'rsatish, transport xizmati va boshqa masalalar yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan birga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Mehmonlarning asosiy tadbirlardan bo'sh vaqtlarida viloyat bo'ylab sayohatga chiqishlari uchun olti yo'nalis bo'yicha sayyohlik dasturlari tuzildi. Shuningdek, o'zbek milliy taomlaridan bahramand bo'lishlari va xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi bilan tanishishlari uchun ham ular boradigan manzillar belgilab olindi.

22-sentabrda Samarqand shahrida xalqaro forumga hozirlik bo'yicha shtab rasman faoliyat boshladi. Shtabga vazir-

lik va idoralar, mas'ul tashkilotlar xodimlari birlashtirilgan va ularning kunlik faoliyati monitoring qilinib, umumlashtirilmoqda. Shtab YUNESCO bosh shtab-kvartirasi bilan hamkorlikda ishlamoqda va faoliyat muvofiqlashtirilyapti.

Mas'ullarining qayd etishicha, dastlabki kunlaridanoq logistika, OAV bilan hamkorlik, axborot materiallarini tayyorlash va ishtirokchilar hamda mehmonlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq bir qator masalalar hal etildi.

Asosiy tadbirlar "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazida o'tkaziladi. Bu yerdagi 8 ta mehmonxonada nufuzli delegatsiyalar, tadbir ishtirokchilarini joylashtirish uchun joylar band qilib qo'yildi. Bundan tashqari, Samarqand shahridagi 130 ta mehmonxonada ham sessiya qatnashchilari va mehmonlar uchun xonalar hozirlanadi.

Xalqaro darajadagi tadbirni o'tkazishga tayyorgarlik doirasida xalqaro turizm majmuasi hududidagi ekspomarkazda ishtirokchilar, mehmonlar va OAV vakillari uchun zamonaviy, qulay va xavfsiz infratuzilma yaratilmoqda. Jumladan, 600 kishi uchun ishchi ofislarni yangilanmoqda. Bir vaqtning o'zida 1500 kishini qabul qiladigan 7 ta panel sessiyalari zallarini ta'mirlash va zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ishlari yakuniga yetmoqda. 12 ta ko'rgazma stendlarini o'rnatish, innovatsion loyihalar va texnologiyalarni namoyish etish uchun joylar hozirlanmoqda. Markaz hududida va Samar-

qand shahrida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Tadbir YUNESCO rahbariyati va kotibiyati to'liq tarkibda, tashkilotga a'zo 193 davlatdan 4 mingdan ortiq delegat qatnashishi kutilmoqda.

Hukumat tashkiliy qo'mitasi a'zosi, bosh shtab rahbari A.Ikromov rahbarligida shtabda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishda xalqaro anjumanga tayyorgarlik borasida tashkiliy ishchi guruhlari tomonidan shu paytgacha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, galdagi vazifalar belgilab olindi.

Xususan, sessiya ishtirokchilari va mehmonlarning yurtimizga kelib-ketishi uchun maxsus aviareyslar tashkil etish, "Toshkent - Samarqand" va "Samarqand - Toshkent" yo'nalishida qo'shimcha aviaparoiz va poyezd qatnovlarini yo'lga qo'yish, mehmonxonalarni tayyorlash, asosiy sessiya va gid-ekskursovodlar bilan ishlash, matbuot markazi tashkil etish kabi masalalar yuzasidan mas'ullarning axborotlari tinglandi.

Sessiya va uning doirasidagi tadbirlarda ishtirok etadigan nufuzli delegatsiyalar, xalqaro tashkilotlar rahbarlarini kutib olish hamda ular qatnashadigan tadbirlar dasturlarini puxta ishlab chiqish zarurligiga e'tibor qaratildi.

G'.HASANOV.

Bizning suhbat

Xususiy maktab

Konstitutsiyaga zid emas

Chunki ular zarurat, tanlov imkoniyati

Ta'lim, ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limi barcha davrlarda ham ko'pchilikning e'tiborida bo'lib kelgan. Bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bu soha doimiy e'tiborda bo'lish barobarida, ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamovga murojaat qilib, ularning ayrimlari haqida bilib oldik.

- Muzaffar Yazdonqulovich, Konstitutsiya-mizning 50-moddasida "davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi" belgilangan. Ayni paytda boshqa hududlar qatori Samarqandda ham xususiy maktablar ko'payib bormoqda. Tabiiyki, ularda har bir tarbiyalanuvchi uchun muayyan miqdorda oylik to'lovlar mavjud. Bu esa Bosh qomusimizda belgilangan yuqoridagi normaga zid emasmi? - Asosiy Qonunimizning 50-moddasida davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur moddada davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Yurtimizda bepul umumiy o'rta ta'lim kafolatlangan va bolalarning davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishiga barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan bir qatorda, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatishni xohlaydigan tadbirkorlar uchun ham nodavlat umumiy o'rta ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun imkoniyatlar mavjud.

Qayd etish lozim, xususiy ta'lim tashkilotlarining faoliyat yuritishi yuqoridagi konstitutsiyaviy kafolatga zid hisoblanmaydi. Chunki ular davlat tomonidan taqdim etiladigan bepul ta'lim tizimini almashirmaydi, balki fuqarolar uchun qo'shimcha tanlov imkoniyatini yaratadi. Ota-onalar yoki qonuniy vakillar o'z xohishiga ko'ra farzandi uchun davlat maktabini yoki xususiy maktabni tanlashi mumkin. Bu zarurat emas.

Ya'ni, xususiy maktablarning bo'lishi Konstitutsiyadagi "bepul umumiy o'rta ta'lim kafolati"ni buzmaydi. Asosiy huquq - bepul ta'lim olish imkoniyati davlat maktablari orqali amalga oshiriladi.

- Umuman, xususiy umumta'lim maktablari-da oylik to'lovlar qaysi mezonlar asosida belgilanadi? Bu jarayonni tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari yoki viloyat boshqarmasi nazorat qila oladimi? Xususiy maktablardagi ta'lim sifati qanday?

- Bugungi kunda Samarqand viloyatida 49 ta xususiy maktab mavjud. Ular qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda viloyat boshqarmasi tomonidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyati, ularning belgilangan litsenziya talablari va shartlari-ga rioya qilishini nazorat qilish Prezidentimizning 2022-yil 13-sentabrdagi 374-qarorida belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

Qayd etish lozim, xususiy maktablarning to'lov miqdorlari mustaqil ravishda belgilanadi. Zero, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasi yettinchi bandida nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ta'lim oluvchi yoxud uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Shu sabab nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim berish to'lovlari-ni mustaqil ravishda, shartnoma asosida belgilaydi.

- "Umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik ko'llanmalar bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga ko'ra, darsliklarni to'liqsiz to'plamda ijaraga berishga yo'l qo'yilmaydi.

Ammo ayrim hollarda bu qoida amalga ishlamaydi. Misol uchun, o'tgan o'quv yilining o'rtalariga kelib ham Samarqand shahridagi 81-maktabda darsliklar yetishmasligi ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan.

Joriy yilda bunday holat qaytarilmaydimi? - Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 28-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik ko'llanmalar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi nizomning 1-bob 2-bandiga asosan, "umumta'lim maktablarining birinchi sinf o'quvchilari uchun darsliklar har yili, 2-4-sinfilar uchun ikki yilda bir marta va 5-9-sinfilar uchun to'rt yilda bir marta yangilani-shi belgilangan.

Mazkur nizomning 4-bob 51-bandiga asosan, "Darsliklar yoki o'quv-metodik ko'llanmalardan foydalanish usulidan qat'i nazar, ular yo'qolgan yoki foydalanishga yaroqsiz holatga kelib qolgan taqdirda, o'quvchining ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud homiy-lar yoki o'qituvchilar zararni xuddi shunday darslik yoki o'quv-metodik ko'llanma bilan qoplaydi. Yoki, uning birlamchi hujjatlarda (hisob-fakturada, yuk



xatida) ko'rsatilgan qiymatini to'laydi. Lekin yo'qotilgan darsliklarning o'rnini qoplashning imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariyati tomonidan mazkur darsliklarning nusxalari chop etilib, darsliklar to'plamlarini to'liq holatga keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Amaldagi tartibga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari uchun yagona majburiy maktab formasini joriy qilish haqidagi tartib bekor qilingan.

Lekin bu masala har yili ko'plab muhokamalarga sabab bo'ladi. Siz bu haqda nima deysiz?

- Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 666-sonli qaroriga hukumatning 558-sonli qarori bilan o'zgartirish kiritilgan. Ya'ni, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida belgilangan shakllardagi yagona maktab formasi bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan. (Izoh: aniq muddati, ya'ni aniq qachon joriy etilishi belgilanmagan).

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 48-moddasida ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etish ta'lim oluvchilarning majburiyatlaridan biri etib belgilangan.

Shu bois Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 31-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 282-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalari to'g'risida"gi nizomning 15-bandiga muvofiq, ta'lim muassasasi ustavida man etilgan libos va qiyofada, jumladan, o'g'il bolalar kalta shim, futbolka, shippakda va qiz bolalar kalta, tor va tanani ochiq ko'rsatuvchi yupqa (harir) kiyimda kelishi hamda bo'yni va barmoqlariga turli xil taqinchoqlar taqishi taqiqlangan.

Ya'ni, yagona maktab formasi joriy qilinmadi, degani umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari maktabga xohlagan kiyimda borishi mumkinligini bildirmaydi.

- Muzaffar Yazdonqulovich, shu o'rinda yana bir savol - Vazirlar Mahkamasining 2021-yildagi qaroriga ko'ra, 2025/2026-o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikat-ga ega bo'lishi lozimligi belgilangan.

Jarayon qanday kechmoqda? - Hozirgi kunda viloyatda jami 5506 nafar xorijiy til o'qituvchisi faoliyat olib bormoqda. Shundan 3685 nafari (66,9 foiz)da milliy va xalqaro darajadagi sertifikat mavjud.

Milliy va xalqaro darajadagi sertifikatlari mavjud bo'lgan 1821 nafar o'qituvchilarni joriy yilning sentabr oyidan tuman (shahar)lar kesimida Samarqand davlat chet tillar institutining professor-o'qituvchilari bilan birgalikda milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lishlari uchun o'quv-seminarlar tashkil qilindi.

Xuddi shunday, joriy yilning 28-avgust sanasida Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan milliy sertifikat uchun test jarayonlari tashkil etildi. Oktabr oyida chiqishi kutilayotgan test natijalaridan so'ng viloyatdagi sertifikat olgan o'qituvchilar soni 83 foizga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda.

- Mazmunli suhbat uchun rahmat! - Salomat bo'ling!

Yoqubjon MARQAYEV suhbatlashdi.

Keyingi yillarda yurtimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, soha subyektlarini har tomonlama himoya qilish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublika-si Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"gi Qonunda vakil tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bergan shikoyatlarini ko'rib chiqishi belgilangan. Shundan kelib chiqib, joriy yilning 8 oyi mobaynida Biznes-ombudsmanning viloyatda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlari-ga 450 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 440 tasi ko'rib chiqildi va murojaat mualliflariga belgilangan tartibda javob xatlari yuborildi. Murojaatlarning asosiy qismi, ya'ni 18 foizini soliq, 14 foizini yer, kadastr, arxitektura, 11 foizini bank, moliya va kredit, 9 foizini davlat idoralarning qarorlari yoki mansabdor shaxslar-niing xatti-harakati yuzasidan hamda 8 foizini infratuzilmaga oid va boshqa masalalar bo'yicha murojaatlar tashkil qildi. Murojaatlarni o'rganish jarayoni-da ularda keltirilgan vajnlari chuqur o'rganish hamda imkon qadar qanoat-lantirish va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, joriy yilning avgust oyida Paxtachi tumanida faoliyat yurituvchi "Ko'k gumbaz" MChJning (nomi o'zgartirilgan) elektron-onlayn auktsion orqali sotib olgan obyektiga nisbatan kadastr hujjatlari to'rt yildan beri rasmiylashtirib berilmayotganidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati o'rganildi.

Aniqlanishicha, tadbirkor 2021-yil-da elektron-onlayn auktsion orqali avval "Hududgazta'minot" AJga tegishli bo'lgan binoni sotib olgan. Biroq sobiq balansda saqlovchining qarzlari borligi sababli binoga qo'yilgan taqiy va bandlar yechilmagan. Natijada tadbirkorning daromad topish maqsadida xarid qilgan mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqi cheklangan.

Murojaatni o'rganib chiqish nati-jasida majburiy ijro byurosi organlariga xulosa kiritilib, qo'yilgan barcha taqiy bekor qilinishi ta'minlandi va jamiyat nomiga kadastr hujjatlari tayyorlanib, mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ta'minlandi.

Tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini kechayu kunduz qabul qilish, hal etish va ushbu jarayonlarni nazorat qilish, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qiyosatga tizimli muam-molarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni shakllanti-rish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan tadbirkorlik subyektlarining jamoaviy murojaatlarini qabul qilish maqsadida "Tadbirkorlar virtual ofisi"



TADBIRKOR —

biznes-ombudsman himoyasida

axborot portali faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilning 8 oyida mazkur axborot portaliga viloyatda faoliyat yurituvchi tadbirkorlardan 689 ta masala yuzasidan 649 ta murojaat kelib tushgan. Mazkur murojaatlar asosida tadbirkorlarga 1,5 milliard so'mdan ortiq kredit ajratilishida, 2,5 milliard so'm pul mablag'lari undirilishida, 1,6 milliard so'm soliq summalari qaytarilishi va hisobdan chiqarilishida, 525 million so'm kommunal xizmatlar uchun asossiz hisoblangan qarzdorliklar olib tashlanishida, 98 million so'm noqonuniy hisoblangan jarima va boshqa ta'sir choralari bekor qilinishida yordam ko'rsatildi.

"Tadbirkorlar virtual ofisi" axborot portali orqali kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddati ustidan Biznes-ombudsman tomonidan doimiy nazorat o'rnatilgan bo'lib, o'tgan davrda portal orqali yuborilgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatiga rioya qilmaganligi bois 6 nafar mansabdor shaxslar-ga nisbatan ma'muriy jazo choralari ko'rilishi ta'minlandi. Bundan tashqari, qonunchilikka muvofiq, Biznes-ombudsmanga tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini ko'zlab arizalar, da'volar va shikoyatlar bilan sudlarga davlat boji to'lamasdan murojaat etish huquqi berilgan. Shunga ko'ra, joriy yilning o'tgan davrida Biznes-ombudsman devonining viloyatda faoliyat yurituvchi xodimlari tomonidan sudlarga kiritilgan da'vo arizalari orqali davlat idoralaridan tadbirkorlik subyektlari foydasiga 2 milliard 300 million so'mdan ortiq mablag' undirib berildi. Misol uchun, Past Darg'om tumanida faoliyat yurituvchi "Haqiqat" MChJning (nomi o'zgartirilgan) murojaatini o'rganish davomida tadbirkor viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan shartnoma tuzib, mahsulotlarni yetkazish va xizmatlarni ko'rsatish majburiyatini olganligi va ushbu shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini to'liq bajarganligi, ammo buyurtmachi ish, xizmatlar va mahsulotlar to'liq qiymatini pul ko'chirish yo'li bilan to'liq miqdorda to'lab berish majburiyatini olgan bo'lsa-da, uzoq vaqt mobaynida tadbirkorning pullarini bermay kelayotganligi aniqlandi va ushbu qarzdorlikni undirish haqida sudga da'vo arizasi kiritildi. Samarqand shahar iqtisodiy sudining 2025-

yil iyun oyidagi hal qiluv qarori bilan buyurtmachidan tadbirkor foydasiga 1 milliard 27 million so'm undirilishi ta'minlandi.

Tadbirkorlarning huquqlarini o'z vaqtida himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublika-si Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda uning devoni xodimlari-ga ma'muriy javobgarlik to'g'risida-gi Kodeksning 9-moddasi bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati berilgan. Ushbu vakolatdan foydalanilgan holda davlat idoralari faoliyatida o'tkazilgan o'rganishlar va tahlillar, shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha joriy yilning 8 oyida tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini buzgan 115 nafar shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish haqida to'g'ridan to'g'ri qarorlar qabul qilindi. Shuningdek, davlat idoralari-da faoliyat yurituvchi 58 nafar shaxsga nisbatan MJtKning tegishli moddalar bilan rasmiylashtirilgan ma'muriy ishlar ko'rib chiqish uchun sud va boshqa idoralar-ga yuborildi.

O'tgan davrda tadbirkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonun-buzilishga yo'l qo'yganligi uchun 76 nafar, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini tashfif qilish tartibini buzganligi uchun 64 nafar, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun 24 nafar, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tao-millari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun 8 nafar, vakil devoni xodimlari qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganligi uchun 2 nafar, tadbirkor-niing faoliyatini noqonuniy to'xtatib qo'yganligi uchun va tadbirkorning pul mablag'larini o'z vaqtida qaytar-maganligi uchun 1 nafar mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Umuman olganda, joriy yilning o'tgan davri mobaynida ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan davlat idoralari xodimlariga nisbatan jami 892 million so'mdan ortiq ma'muriy jarima-lar tayinlandi.

Jasur TURSUNOV, Biznes-ombudsman devonining Samarqand viloyati shu'basi yetakchi inspektori.

ЯНА БЕКАТЛАР ҲАҚИДА

Таклиф

Вилоятда, хусусан, Самарқанд шаҳрида жамоат транспорти хизматини яхшилаш учун амалга ошириладиган ишлардан кўз юма олмаймиз. Йўлларни яхшилаш баробарида замонавий автобуслар келтирилиб, қулай маршрутлар яратилганлиги аҳолига манзур бўладиган. Албатта, бу эзгу иш ҳали давом этади.

Мен бекатлар хусусида тўхталмоқчиман. Тўғри, уларнинг жойлаши-ши, кўриниши ҳам ўзгарди. Замонавий автобусларга мос бекатлар пайдо бўляпти. Жамоат транспорти масалалари муҳокама этиладиганда албатта, бу масала ҳам диққат-этиборда бўладиган. Лекин ҳозирги пайтда автобе-катлар тарғиботчи ролини ўташи керак, деган фикрданман.

Масалан, бугун автобекатлар турли рекламалар билан «безатилган». Уларда ҳали автобусларнинг келиб-кейтиш жадвали қўйилмаган. Янгилари харид қилинаётганлиги учун катнов жадвалида ўзгаришлар бўлиши мумкин. Бироқ ҳар бир бекатда қайси автобуснинг тўхташи ҳақида маъ-лумотлар ёзилиши шарт. Бекат деворларига эса бу ердан ўтувчи авто-буслар маршрути қўйилса, ундан ҳам яхши. Чунки меҳмонлар ўз ҳаракат манзиллини аниқлаб, ундан кейин белгиланган автобусга чиқишади.

Фозил АБДУРАУПОВ.

CHOY FABRIKASI BEKATI

Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat mamlakatimizda, balki jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki iqlimning keskin o'zgarishi oqibatida ro'y berayotgan ekologik inqiroz, suv tanqisligi, tuproqlar degradatsiyasi, sho'rlanishi, eroziyasi, qurg'oqchilik kabi omillar ta'siri vaziyatning yanada murakkablashishiga olib kelmoqda. Natijada jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin ko'tarilishi kuzatilmoqda. Holat sohani yangi innovatsion yechimlar, texnologiyalar hamda ilmiy yutuqlarni qo'llash orqali yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida yetti yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman tashkil etib kelinmoqda. Universitet bu yil ham ushbu xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumaniga mezbonlik qiladi.

Anjuman 2025-yilning 14-15-oktabr kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samar-

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global muammo



qand davlat universiteti Biokimyo institutida o'tkaziladi. Konferensiya shu'ba yig'ilishlarida ilm-fan yutuqlari, ilmiy yangiliklar, mavjud muammo va yechimlarga bag'ishlangan yangiliklar muhokama qilinadi.

Unda AQSh, Rossiya, Germaniya, Serbiya, Italiya, Pokiston, Qirg'iziston, Hindiston, Turkiya, Avstraliya hamda Tojikiston kabi davlatlardan 30 dan ortiq xorijlik olimlar ishtirok etishi kutilmoqda. Shuningdek, respublikamizning 40 dan ortiq tashkilotlardan 400 ga yaqin mutaxassislar oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha ma'ruzalar bilan qatnashadi.

Konferensiyada oziq-ovqat xavfsizligining muhim omili hamda barqarorligini

ta'minlashda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning fiziologik, biokimyoviy va agrotexnologik asoslari, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini saqlashda zamonaviy biotexnologiyalardan foydalanish va genetika yutuqlarini qo'llashning ahamiyati, soha xavfsizligini ta'minlashda kimyoviy tadqiqotlarning o'rni kabi dolzarb masalalar mutaxassislar e'tiborida bo'ladi.

Anjuman doirasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda amalga oshirish lozim bo'lgan muhim taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Sirojiddin O'ROQOV,
Samarqand davlat universitetining
Biokimyo instituti direktori.
Farrux ABDIRASULOV,
universitet doktoranti.



Fuqarolardan sport sinovlari olinmoqda

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish maqsadida 11 yosh toifasi bo'yicha «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sport sinovlari qabul qilinmoqda.

Sport sinovlarining ixtiyoriy va maxsus talablarini bajarish uchun mahalla va maktablarda sport inshootlari tanlab olingan bo'lib, ishtirokchilar uzoq va qisqa masofaga yugurish, yurish, basketbol savatchasiga to'p kiritish, uzun va qisqa masofaga sakrash, granata uloqtirish kabi sport mashg'ulotlarini bajarmoqda.

Samarqand shahridagi o'yin tur-lari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabidagi studi-yadan bir vaqtda respublikamizning barcha hududida 30–70 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolardan sport sinovlarini qabul qilishga start berildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda Sport vaziri Adham Ikromov, viloyat hokimining o'rinbosari Husan To'xtayev va viloyat sportiga mas'ul rahbarlar ishtirok etdi.

- Viloyatimizda joriy yilning mart-aprel oylarida 7 yoshdan 17 yoshgacha 471 ming 919 nafar, aprel-may oylarida 18 yoshdan 29 yoshgacha 4563 nafardan ziyod fuqaro sport

sinovlarini topshirdi, - deydi viloyat sport boshqarmasi boshlig'i Jasur Nurmonov. - Oktabr-noyabr oylarida 30 yoshdan 70 yoshgacha va undan katta yoshdagi shaxslardan hamda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan murakkablik darajasini hisobga olgan holda ixtiyoriy va maxsus talablar asosida sport sinovlari olinadi.

Jismoniy tayyorgarlik me'yorlarini bajargan fuqarolarning tahliliy ma'lumotlarini yagona elektron bazada yuritish amaliyoti joriy etilgan bo'lib, my.sport.uz platformasida "Sport sinovlari" axborot tizimiga joylashtirib borilmoqda.

Ushbu sport sinovlarining maxsus talablarini bajargan ishtirokchilar «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» ko'krak nishoni va qimmatbaho sovg'alalar bilan taqdirlanyapti. Shuningdek, g'oliblarga ishga yoki o'qishga kirishda jismoniy tayyorgarlik talab etiladigan amaliy mashg'ulotlarda ustunlik beradigan sertifikatlar taqdim etilmoqda.

Maktab maslahatchisi

qanday vazifalarni bajaradi?

Joriy yil 1-oktabrdan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining 3400 nafar o'rinbosari shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga 10 ming nafar maktab maslahatchisi lavozimi joriy qilindi. Bu lavozimga birinchi navbatda da'vogarlik qiladigan direktor o'rinbosari yoki boshqa nomzodlar suhbatdan o'tishlari uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishi talab etiladi.

2026-yil 1-yanvardan ish boshlaydigan maktab maslahatchisi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning muammolarini tinglab, ularga yechim topadi. Bitiruvchilarni kasb-hunarga qiziqishi bo'yicha yo'naltiradi. Ota-onalar va sinf rahbarlari bilan hamkorlikda o'g'il-qizlarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ko'maklashadi. Shu nuqtai nazardan o'quvchining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda maktab maslahatchisining o'rni beqiyos.

Masalan, o'quvchi sinfdoshlaridan ajralib qolgan, do'st ortira olmaydi, o'zini yolg'iz his qiladi. Bunday vaziyatda maslahatchi uni suhbatga chorlaydi, qiziqishlarini aniqlaydi, sinfdagi boshqa o'quvchilar bilan guruhli mashg'ulotlar o'tkazadi. Shu orqali bola asta-sekin jamoaga qo'shila boshlaydi. Ikkinchidan, bir o'quvchi darslarda qoloq, ba'zi fanlarni tushunmaydi, shuning uchun o'ziga ishonchi kamaygan. Maslahatchi bolaning kuchli tomonlarini topadi, u bilan motivatsion suhbat o'tkazadi, qo'shimcha to'garaklarga yo'naltiradi. Natijada uning o'ziga ishonchi ortadi. Oila bilan bog'liq muammo bo'lganda, ya'ni o'quvchining uyida ota-onasi tez-tez janjallashadi. Bu holat bolaning kayfiyati va o'qishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Maslahatchi o'quvchini tinglaydi, unga ruhiy ko'mak beradi, ota-onasi bilan suhbat o'tkazib, bolaga mehr va e'tibor zarurligini tushuntiradi.

Maslahatchi yuqori sinf o'quvchilariga ham yordam beradi. Misol uchun, 11-sinf o'quvchisi kelajakda qaysi kasbni tanlashni bilmay qiyналmoqda. Maslahatchi kasb tanlash bo'yicha testlar o'tkazadi, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlaydi, turli kasb egalarini uchrashuvga taklif etadi. O'quvchi asta-sekin o'z yo'lini topa boshlaydi.

Bunday lavozim rivojlangan davlatlar tajribasida yaxshi samara bergan. Masalan, AQShda 250 nafar o'quvchiga bitta maslahatchi to'g'ri keladi. Maktablarda o'quvchilarning intizomiy muammolari 20 foizga kamaygan. 2022-yilgi PISA tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Finlandiyada bolalarning maktabni tashlab ketish ko'rsatkichi atigi 0,3 foizni tashkil etadi. Yaponiyada ruhiy tushkunlik darajasi 15 foizga kamaygan. Germaniyada maktab maslahatchisi bilan ishlagan yoshlarning 70 foizi tanlagan kasbidan qoniqish bildirgan. Janubiy Koreyada o'quvchilar orasida stress yuqori bo'lganligi sababli maslahatchilar psixoterapevtik metodlardan keng foydalanadi. Kanada maktablarida esa maslahatchilar nafaqat o'quvchilarga, balki ota-onalar va o'qituvchilarga ham maslahat xizmatini ko'rsatadi.

Sirojiddin TAYLONOV,
Urgut tumanidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari.

LINK

Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "bog'lam", "aloqa", "ikki narsa yoki vaziyat o'rtasidagi munosabat, bog'lanish" ma'nolarida qo'llaniladi.

HAVOLA

"Link" atamasi ilmiy tadqiqot ishlarida, o'quv jarayonida, umuman, jonli so'zlashuvda faol qo'llanmoqda. "Havola" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA!

Viloyat adliya boshqarmasidan 2015-yil 19-mart 149-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston suzish federatsiyasi Samarqand viloyat filiali (STIR: 302848588) UZBEKISTAN AQUATICS federatsiyasi Samarqand viloyat hududiy bo'limi nomi bilan qayta davlat ro'yxatidan o'tkazilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Shohi Zinda ko'chasi, 249-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Safarov Maxmud Axmadovichga (2021-yil 27-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Shodiyev Axtamga (2019-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Sulaymonov Olimjon Mardonovichga (2024-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Usmanov Shuxrat Xamroqulovichga (2024-yil 27-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Turayev Musurmonkul Atabekovichga (2020-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariual idorada marhum Umurzakov Rustam Sulaymonovichga (2023-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tuman notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mamarazoqova Dilbar Sharafovnaga (2025-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Atabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Sattarova Nilufar Axrorovnaga (2019-yil 7-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Atabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Zayniyev Nuridaga (2017-yil 4-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

BEKOR QILINADI!

Nurobod tumanidagi «SORIBOY KAMARI» fermer xo'jaligining (STIR: 303482214) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "FAZLIDDIN QURILISH INVEST" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 302624241) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Viloyat adliya boshqarmasidan 2015-yil 19-mart 149-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston suzish federatsiyasi Samarqand viloyat filialining (STIR 302848588), davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi hamda ikki nusxadagi nizomi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi "STANDART EXPORT" MChJ direktori A.Norbayev va sotib oluvchi "SALFIR SAVDO SERVIS" MChJ direktori J.Tursunovlar o'rtasida Payariq tumani Rayim mahallasida joylashgan ovqatlanish savdo va maishiy xizmat shoxobchalari binosining 2-qavat 5-xonasi uchun "BEST REALTOR" MCHJ mintaqaviy filiali vositachiligidagi 2017-yil 23-iyunda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan, 104-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida tuzilgan ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Mirzokulova Moxinabonu Mirshakarovna nomidagi AD № 3902168 raqamli pasport (2023-yil 11-iyulda Samarqand tumani IIV-18233 tomonidan berilgan) Samarqand tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99899-271-99-90.

Fuqaro Ubaydullaeva Aziza Otabekovna nomidagi AC № 2688085 raqamli pasport (2020-yil 30-yanvarda Samarqand tumani IIV tomonidan berilgan) Samarqand tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99899-561-18-05.

Fuqaro Raxmatulloyeva Nilufar Umedjonovna nomidagi AD № 5976587 raqamli pasport (2024-yil 1-fevralda Samaqand shahar IIV-601417) tomonidan berilgan) Samarqand shahar hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99899-561-18-05.

Muammoni yashirish yechim bo'lolmaydi

Yoxud rahbarlar tanqidni nega ko'tarolmayapti?

Bugungi kunda rahbarlar orasida tanqidni qabul qila olmaslik holatlari ko'p uchramoqda. Ayrim mas'ullar o'z bilimi, qobiliyati va imkoniyatlarini real baholash o'rniga, tanqiddan qochishga, o'zini maqtashga va mavjud muammolarni yashirishga urinyapti. Bu esa shaxsiy darajada ham, tashkilot va jamiyat darajasida ham jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Masalan, yaqinda bir tashkilot faoliyatini joyiga borib o'rgandik. Mutaxassislar bilan xolis tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni yoritdik. Lekin maqola ijtimoiy tarmoqqa chiqishi bilan tashkilot rahbari bizning tanqidiy fikrimizga qarshi chiqib, o'zini oqlashga tushdi. Bundan tashqari, maqolani o'chirtirish uchun "tanish-bilishchilik" orqali bosim o'tkazishga harakat qildi. Bu bir qarashda tabiiy holdek ko'rinsa-da, aslida muammoni to'g'ri qabul qilmaslik va shaxsiy mas'uliyatdan qochishning yaqqol ko'rinishi edi. Rahbar muammoni anglash, kamchilikni tan olish o'rniga, uni yopishga, yuqori idoralarga "hammasi joyida" degan ko'rinishni namoyon etishga urindi.

Tabiiyki, shu o'rinda savol tug'iladi: muammoni yashirish orqali uni hal qilish mumkinmi? Yo'q, albatta. Aksincha, bu holat muammoni



yanada chigallashtiradi, jamoatchilik ishonchiga rahna soladi va boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. O'ylashimcha, muammoga muno-sabat tashkilotning haqiqiy yuzi va rahbarning salohiyatini ko'rsatadi. Muammoni yashirishning

Mulohaza



asosiy sababi tanqiddan qo'rqish, lavozimni yo'qo-tish xavfi yoki "tepadagi"larga yaxshi ko'ringan holda o'sish-ga umid bog'lash bo'lsa kerak. Lekin shunday "ochkolar"ni qo'lga kiritish ortidan hal qilinmagan muammolar odamlarning kundalik hayotini og'irlashtirib boraveradi va ularda davlatga, rahbarlarga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Albatta, faoliyatimiz davomida bunday holatlarga ko'p duch kelamiz. Tanqid qilishdan maqsad esa qaysidir tashkilot yoki rahbar obro'sini to'kish emas, balki muammolar yechimini topishga yordam berish, jamiyatda mas'uliyat tuyg'usini oshirishdir. Demoqchimizki, rahbarlar tanqidni to'g'ri qabul qilib, tizimdagi muammo va kamchiliklarni vaqtda bartaraf qilsa, avvalo, undan o'zi manfaat ko'radi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarni kuzatsangiz, mas'ul rahbarlar birinchi navbatda o'z vazifasi oldida hisobdor ekanini unutmaydi. Ular muammolan qochmaydi, aksincha, uni bartaraf etishga intiladi. Chunki har qanday tizim muammosiz bo'lishi mumkin emas. Haqiqiy rivojlanish o'zini real baholash, zaif tomonlarini tan olish va ularni yaxshilashga urinish bilan boshlanadi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Bugunning gapi



Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o'zining, so'ngra do'stlari, oilasi davrasida tushgan suratlarini joylay boshlashdi. Keyin esa qaysi restoranda ovqatlangani, qanday taom yeganini maqtaydigan bo'ldi. Inson tabiatida maqtanchoqlik xususiyati bor va doim yaqinlariga turmushida ro'y berayotgan o'zgarishlarni bildirib turishni yaxshi ko'radi. Mana shu maqtanchoqlik ijtimoiy tarmoqlarga ko'chgach, ayrim odamlar chet elda dam olayotgani yoki yangi avtomashina sotib olganini ko'rsata boshladi.

BAXT boylikda emas, QANOATDA

Ayniqsa, san'atkorlar shaxsiy hayotini maqtab, odamlar tiliga tushdi. Masalan, bir san'atkor qiz turmushga chiqqach, kuyov unga yashayotgan uyini to'ldirib kiyim-kechak, taqinchoq, sumka va boshqa narsalar sovg'a qilganini videoga olib tarqatdi.

San'atkor qiz baxtli bo'lsin! Ammo shaxsiy hayotni odamlarga ko'z-ko'zlash yaxshimi? Ota-bo-bolarimiz beva ayollarning ko'ngli o'ksimasin, deb o'z jufti bilan ko'chada yonma-yon yurmagan. Nega bugungi ayrim san'atkorlarimiz turmush o'rtog'iga qanaqa mashina sovg'a qilganini maqtashdan tiyilmayapti?

Achinarlisi, shaxsiy hayotini ko'z-ko'zlash ortidan ayrimlar asl hayotdan uzoq axborotlarni ham tarqatadigan bo'ldi. Bu haqda turli roliliklar ham olina boshlandi. Yaqinda shunday lavhalaridan birini ko'rib qoldim.

Yosh juvon shohona unyning ikkinchi qavatidan dugonasi bilan telefonida gaplashib tushyapti. "Bo'pti, dugon, erim ishdan keldi, kutib olmasam ming'iraydi". Ayol erini xushlamaygina kutib oldi.

- Nima bo'ldi senga, kayfiyating yo'q? - deb so'radi er.

- Bugun dugonalarim bilan o'tirgandim, hammasida falon mashina. Men bechorada bo'lsa "Kia". Men sizning cho'ringizmanmi, qachongacha "Kia"da yuraman?

- Sabr qil, yaqinda olib beraman, aytgan mashinangni.

Qachondan beri hayot bu qadar shohona bo'lib ketdi? Bunday roliklarga ishonayotganlar qancha?

Yaqinda bir kishi ijtimoiy tarmoqda javrayapti:

- Yoshim 52 da. Ayolim ijtimoiy tarmoqlardagi to'kin hayotni ko'rib, men bilan ajrashyapti. Uning fikricha, hamma zo'r yashayotgan emish. Endi men nima qilay?

Mana shaxsiy hayotni ko'z-ko'z qilish, uni bo'rttirib ko'rsatish qanday oqibatlarga olib keladi? Ilgari 40-50 yoshda ajrashishlar deyarli kuzatilmasdi. Endi esa yoshi katta er-xotinlar ham arzimans narsaga ajrashib ketyapti.

Milliy statistika ko'rsatishining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda joriy yilning olti oyi davomida nikohdan o'tganlar soni kamayib, ajrimlar soni ko'paygan. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni 95,3 mingtani tashkil etgan. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 2,1 mingtaga kamaygan. 23,3 ming er-xotin ajrashgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 0,8 mingtaga ko'p, degani. Ajralishlarning aksariyati shaharlarda qayd etilgan. 14,1 ming er-xotin (60,6 foiz) shaharda, 9,2 ming juftlik qishloq joylarda ajrashgan (39,4 foiz).

Hududlar kesimida eng ko'p nikohdan ajrashish holati Tosh-



kent shahrida (1,5 ming) kuzatilgan. Eng past ko'rsatkich (310 ta) Navoiy viloyatida qayd etilgan.

INSTAGRAM YOLG'ONDAN IBORAT

San'atkorlarga ko'proq yoshlar taqlid qiladi. Hatto arang arzon "lapsha" yeb yurgan talabalar ham o'z profiligga shunday surat va videolar joylaydiki, ishonmasdan ilojingiz yo'q.

- Kursdoshlarimizdan biri tug'ilgan kuniga gul sovg'a olsa, guruhimizdagi barcha qizlar o'sha gul bilan suratga tushadi va uni instagramga joylaydi, - deydi talaba yigitlardan biri. - Bu hol har safar takrorlanadi. Bilmagan odam bu qiz yigitidan tez-tez gul olib turar ekan, deb o'ylaydi. Buni faqat biz, kursdoshlar bilamiz. Qizlar atayin boshqa dugonalariga maqtanish uchun shunday qiladi.

- Qizning sevgan yigiti bo'lsa-chi, unga nima deydi? - deb so'radim tala-badan.

- Yigiti so'rsa, naq baloga qoladi.

Siz gul olib bermaganingiz uchun dugonamning gulini olib suratga tushdim, deydi. Shuning uchun yigiti suratga indamaygina "layk" bosib qo'yadi. Instagram - yolg'on hayot, degani.

Oramizda mana shunday yolg'on hayot domiga tushib qolayotganlar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, instagram tarmog'i shaxsiy hayotni, to'kin, dab-dabali turmushni reklama qilayapti. Kimdir o'zida borini, kimdir yo'g'ini ijtimoiy tarmoqqa joylash bilan ovora.

Asl hayotini ko'rsangiz, hammasi boshqacha. Achinarlisi, ijtimoiy tarmoqqa bog'lanib qolganlar o'zidagi bor baxtni his qilmay qo'yayotganidir. Instagramga kirmasimdan oldin baxtli edim, deydiqanlar ham uchrayapti. Aslida o'sha bekamu ko'st hayotini maqtaydiganlarda baxt, xotirjamlik yo'q. Masalan, badavlat tanishlarimdan biri yaqinda turmushidagi muammolarini aytib berdi. Rosti, achinib ketdim. O'sha ayolning instagramdagi to'kis hayotiga havas qilib yurganlar unda shuncha muammo borligini bilmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqdagi narsalarga ishonavermaslik kerak.

Baxt boylikda emas, baxt - qanoatda. O'qing, o'rganing, izlaning, o'z hayotingizda yashang. Mayli, yutuqlaringiz bo'lsa, ularni do'stlaringizga ulashing. Diplom, sertifikat olsangiz yoki biror tanlovda g'olib bo'lsangiz, maqtaning. Boringki, ibrat uchun biror o'qigan kito-bingizni o'qishga tavsiya qiling. Ammo yolg'on hayotga aldanmang, boshqalarni ham aldamang. Sizning yolg'oningiz kimningdir oilasini buzishga, bolalarini yetim qoldirishga sabab bo'lmasin.

Xurshida ERNAZAROVA.

Xalqimizda baxtli onlarni oila, qarindosh-urug', mahalla, yaqin insonlar davrasida nishonlash qadim zamonlardan qolgan urf-odat. Bugun esa yurtdoshlarimiz to'ylarni kamtarlik bilan, oilaning real iqtisodiy holatiga mos ravishda o'tkazish o'rniga "Hech kimdan kam emasman, kerak bo'lsa, ortig'i bilan qilaman" qabilida nishonlashga harakat qilmoqda.

Marosimlardagi bo'lmag'ur odatlarga chek qo'yish kerak



Ushbu noodatiy harakatlar sababini aniqlash va tahlil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ziyolilar, mahalla faollari tomonidan xalq orasida to'ylar va boshqa kundalik marosimlarni o'tkazishda isrofgarchilikka yo'l qo'yimaslik masalasida olib borilgan tushuntirish ishlariga qaramay, dabdabali to'ylar davom etmoqda.

- Nikoh to'ylarida kelinning ota-onasi, aka-ukalari va qarindoshlariga sovg'a-salomlar berish, kelin tomon esa sep uchun katta sarf-xarajat qilishi kabi bo'lmag'ur urflar quloqch yoymoqda, - deydi mehnat faxriysi Sora Roziqova. - Odatda sepga bir necha to'plam kiyim, gilam va boshqa mayda mahsulotlar berilardi. Ammo bugun uning o'rniga mebellar to'plami, kerakli va keraksiz jihoz va kiyim-kechaklar, sarpolar yuborilmoqda. Teran o'ylab ko'rish kerak, kelin bo'lmishning bor-yo'g'i bir kungina kiyadigan libosi uchun qancha pul sarflanyapti?!

Mahalla-ko'yga ko'z-ko'z qilib to'y qilayotganlarga havas qilib, gohi hasad qilib, ulardan kam bo'lmaslikka harakat qilayotganlar iqtisodiy inqirozga uchrayapti. Oqibatida qiyinchiliklarga bardosh berolmayotgan yoshlar orasida ajrashishlar tez-tez uchrab turibdi.

Yana bitta muhim masala, o'g'il farzandni sunnat qilish marosimi ham to'yga, tantanaga aylanib boryapti. Bu to'y o'tkazilgandan so'ng aksariyat oilalar yillar davomida qarz girdobida qolyapti. Bunday muammolarga yechim topish uchun ko'pgina erkaklar oilasini tashlab, xorijga ishlash uchun ketishga majbur bo'lyapti.

Bundan ikki yil avval bir tanishim farzandlariga sunnat to'y qildi. To'ymisan, to'y bo'ldi o'ziyam. Poytaxtdan tanikli artistlar keldi. To'ydan keyin shu paytgacha yaxshigina yashab kelayotgan yosh oilaga ko'z tegdi. Janjallar chiqqa boshladi. Keyin bilsak, to'y uchun katta miqdorda qarz olgan ekan. Yashash sharoiti borgan sari og'irlashib, pul topish uchun xorijga ketdi.

Aytmoqchimanki, marosimlarga juda ko'p miqdorda pul sarflash, nafaqat oila, balki butun jamiyatning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xolbek KO'BAYEV,
Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari.

400 nafardan ziyod o'quvchi "Jasorat maktabi"da tayyorlanadi

2025-2026-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizning barcha tuman va shaharlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari negizida bittadan "Jasorat maktabi" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ular umumta'lim muassasalari uchun harbiy vatanparvarlik yo'nalishida tayanch maktab sifatida tashkil etilgan bo'lib, bolalarni Vatanga sadoqat ruhida, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash maqsadida faoliyat olib boradi.

Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim tashkilotlari o'z faoliyat yo'nalishidan kelib chiqqan holda bu maktablarga uslubiy yordam ko'rsatuvchi muassasa sifatida birlashtirildi.

O'qishga qabul qilish faqat 5-sinf o'quvchilari o'rtasida ikki bosqichda, ya'ni test va jismoniy tayyorgarlik imtihonlari orqali amalga oshiriladi. Har bir tuman (shahar)dan 26 nafardan ballar ketma-ketligi bo'yicha eng yuqori natijaga erishgan o'g'il-qizlar, jumladan, viloyat bo'yicha 416 nafar o'quvchi maktabga qabul qilindi.

Samarqand shahridagi Kichik serjantlar tayyorlash markazida "Jasorat maktabi"ga qabul qilingan o'quvchilarning tantanali va'da berish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mas'ullari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar vakillari, faxriy harbiylar hamda o'quvchilarning ota-onalari ishtirok etib, yoshlarni tabrikledi.

- Maktabga qabul qilingan yoshlar hali kichik, lekin Vatan himoyasi uchun katta qadam tashlayapti, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamov. - "Jasorat" sinflarida matematika, chaqiruvga qadar yoshlarni boshlang'ich tayyorlash, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili va fizika fanlari chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. O'quv mashg'ulotlari nazariy hamda o'quv-dala mashg'ulotlari shaklida tashkil etiladi. O'quv yili davomida ikki marta harbiy poligonlarda va har chorakda bir marta harbiy qismlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

"Jasorat maktabi"ni a'lo baholarga tutatgan, "Vatan tayanchi" otryadi a'zosi bo'lgan bir nafar o'quvchiga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq, oliy va harbiylashtirilgan hamda yuridik ta'lim muassasalariga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar berilishi ko'zda tutilgan.

Faxriddin QURBONOV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

10-OKTABR

Mubarro ISMOILOVA - 1953-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

Ahmadjon QURBONOV - (1921-1945) Jomboy tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

Ma'ruf JALIL - (1936-2004) Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Taniqli shoir va tarjimon. "El-yurt hurmati" ordeni sohibi.

11-OKTABR

Shavkat VOHIDOV - (1932-2008) Samarqand shahrida tug'ilgan. Akademik, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, fizik-olim.

16-OKTABR

Tog'aymurod SHOMURODOV - 1945-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Jurnalist. "Do'stlik" ordeni sohibi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 850 nusxada chop etildi. Buyurtma 469. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda